


## Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari

2019- yil (yanvar-sentabr)

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **3 332,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **112,5** % ni tashkil etdi.

## Qurilish ishlari hajmi

(ulushi, mlrd.so'm)



Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 539,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 14,3 % ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,4 % punktga ko'paydi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 61,6 %i to`g`ri kelib, o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 4,7 % punktga ko`paydi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 120,4 % ni tashkil etgan holda 2 051,7 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 5,1 % punktga kamayib, 22,2 % ni tashkil etdi va 740,8 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 94,7 % ni tashkil etgani kuzatildi.

### Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 176,4 mlrd.so`m yoki 2018 yilning yanvar-sentyabriga nisbatan 2,9 m. ko`p qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 3155,9 mlrd. so`m ishlar bajarilib, o'sish surʼti 135,2 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagagi ulushlari mos ravishda 5,3 % va 94,7 % ni tashkil etdi.





Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlaringning 72,5 %i yoki 2416,0 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 231,7 mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 144,2 % tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 1515,7 mlrd. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 172,1 % yangi qurilish ishlari bo'yicha ishlar bajarildi.

Norasmiy sektor hissasiga 668,6 mlrd. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,5 % yangi qurilish bo'yicha ishlar bajarildi.

**Hududlar bo'yicha qurilish ishlari**


**( 2019 yil yanvar-sentabr )**

**(mld. so'm)**

	<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan, foizda</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirish</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3332,3</b>	<b>112,5</b>	<b>2416,0</b>
<b>shaharlar:</b>			
<b>Qarshi</b>	<b>972,9</b>	<b>122,3</b>	<b>707,9</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>189,8</b>	<b>117,4</b>	<b>140,1</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>G'uzor</b>	<b>125,4</b>	<b>103,1</b>	<b>82,1</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>98,0</b>	<b>103,9</b>	<b>70,1</b>
<b>Qamashi</b>	<b>95,6</b>	<b>102,9</b>	<b>55,6</b>
<b>Qarshi</b>	<b>295,2</b>	<b>105,1</b>	<b>244,0</b>
<b>Koson</b>	<b>366,6</b>	<b>114,2</b>	<b>236,8</b>
<b>Kitob</b>	<b>234,9</b>	<b>117,2</b>	<b>178,8</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>90,2</b>	<b>103,2</b>	<b>55,6</b>
<b>Muborak</b>	<b>160,3</b>	<b>103,5</b>	<b>116,0</b>
<b>Nishon</b>	<b>78,8</b>	<b>104,3</b>	<b>53,1</b>
<b>Kasbi</b>	<b>115,1</b>	<b>106,0</b>	<b>79,7</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>237,3</b>	<b>113,1</b>	<b>176,4</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>89,6</b>	<b>107,9</b>	<b>82,1</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>182,6</b>	<b>104,6</b>	<b>137,7</b>

## Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

*(jamiga nisbatan % da)*




Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,2 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,2 % punktga ko'payib, 65,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,2 % punktga kamayib, 30,7 % ni tashkil etdi.

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,2 % punktga kamaydi va 58,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 41,9 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,2 % punktga ko'paydi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari**
*( 2019 yil yanvar-sentabr)*

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		binolar va inshootlar qurilishi	fugarolik qurilish ob'ektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3332,3</b>	<b>2452,4</b>	<b>410,5</b>	<b>469,4</b>
<b>shaharlar:</b>				
<b>Qarshi</b>	<b>972,9</b>	<b>716,0</b>	<b>119,8</b>	<b>137,1</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>189,8</b>	<b>139,7</b>	<b>23,4</b>	<b>26,7</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>G'uzor</b>	<b>125,4</b>	<b>92,3</b>	<b>15,4</b>	<b>17,7</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>98,0</b>	<b>72,1</b>	<b>12,1</b>	<b>13,8</b>
<b>Qamashi</b>	<b>95,6</b>	<b>70,4</b>	<b>11,7</b>	<b>13,5</b>
<b>Qarshi</b>	<b>295,2</b>	<b>217,2</b>	<b>36,4</b>	<b>41,6</b>
<b>Koson</b>	<b>366,6</b>	<b>269,8</b>	<b>45,2</b>	<b>51,6</b>
<b>Kitob</b>	<b>234,9</b>	<b>172,9</b>	<b>28,9</b>	<b>33,1</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>90,2</b>	<b>66,4</b>	<b>11,1</b>	<b>12,7</b>
<b>Muborak</b>	<b>160,3</b>	<b>118,0</b>	<b>19,7</b>	<b>22,6</b>
<b>Nishon</b>	<b>78,8</b>	<b>58,0</b>	<b>9,7</b>	<b>11,1</b>
<b>Kasbi</b>	<b>115,1</b>	<b>84,7</b>	<b>14,2</b>	<b>16,2</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>237,3</b>	<b>174,6</b>	<b>29,3</b>	<b>33,4</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>89,6</b>	<b>65,9</b>	<b>11,1</b>	<b>12,6</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>182,6</b>	<b>134,4</b>	<b>22,5</b>	<b>25,7</b>

### Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi

*(o'tgan yilning shu davriga nisbatan % da)*



## Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari bilan bajarilgan qurilish ishlari

### Qarshi shahri (122,3 %):

- Qarshi shahridagi 1 va 11 sonli maktablarga yangi o'quv blokining foydalanishga topshirilishi;
- "Ulug'bek school" yangi xususiy maktab qurilishi;
- Ko'p qavatli turar joylar qurilishi.

### Shahrisabz shahri (117,4 %):

- Qarshi-Kitob temir yo'llini elektrlashtirish (110 kv havo liniyalari) ;
- " Sho'rbuloq " suv omborining qurilishi;

### Kitob tumani (117,2 %):

- Cement ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan " Qarshi Conch Cement " MCHJ ning qurilishi ;
- Yangiobod massivida arzonlashtirilgan ko'p qavatli turar joylarning qurilishi;

### Koson tumani (114,2 %):


- "Koson Neft Gaz Qidiruv Ekspedisiyasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qidiruv burg'ulash ishlarining olib borilishi ;
- Neft va gaz uskunalarini ishlab chiqarish va ta'mirlashga mo'ljallangan sex qurilishi.

### Chiroqchi tumani (113,1 %):

- "Ma'danli suv" ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;
- Jismoniy shaxslar tomonidan turar va noturar bino va inshootlarning qurilishi.

### Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

*(jamiga nisbatan % da)*



Joriy davrda ham jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 61,6 % ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxona va

mikrofirmalarning nisbatan yuqori ulushi Qarshi, Shahrисабз tumanlarida va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Dehqonobod hamda Koson tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlaringning 22,2 %i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektoring yuqori ulushi Dehqonobod (59,2 %) hamda G'uzor (42,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefonи:

**A.Isaev**  
**(75) 221-32-47**